

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гўлнора Абдукаҳхаровна –
т

Гурдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;
Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i> XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i> ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i> ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамолович</i> СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Махматкулова Нозикой Чориёевна</i> О'ЗБЕКИСТОНДА XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i> О'ЗБЕКИСТОНДА О'ZINI О'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING АНОЛИНИ ИЖТИМОИЙ НИМОYA QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОИЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i> СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Bahodir Shomurotovich</i> TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i> MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING АНАМИYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i> АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i> ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i> АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i> SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY SHARTI	158-170
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН АЛЛОМА	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна</i> ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i> АХВОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSIYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Хакимович</i> ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quratboyev Alisher Maxsudovich</i> YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOY DAVLATCHILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i> SIVILIZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING IJTIMOY- FALSAFIY AHAMIYATI (Samyuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari asosida).....	205-214

<i>Shukurov Orif Jumaboyevich</i> JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOYIY AKTIVLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	215-219
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Akhmedov Oybek Saporbayevich</i> THEORETICAL OVERVIEW OF THE DEFINITION “TERM” AND “TERMINOLOGY” IN LINGUISTIC SURVEYS	220-227
<i>Ravshanova Gulrukhbegim Qaxramon qizi</i> ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ	228-232
<i>Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna</i> AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI	233-237
<i>Uliqova Mavludaxon</i> “QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI	238-243
<i>Rahmonov Asror ibni Nusrat</i> HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O’RNI	244-252
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI	253-258
<i>Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOYIY-MADANIY FARQLAR	259-265
<i>Vokhidova Tamanno Saidjonovna</i> MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION	266-271
<i>Djurayeva Shahlo G’ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna</i> INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARINING BADIY SEMANTIKASI	272-277
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Uzakova Go’zal Sharipovna</i> O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL QURILISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	278-286
<i>Murzaev Shuxrat Shavkatovich</i> СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ	287-293
<i>Qosimov Botirjon Ma’rufjon o’g’li</i> SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL	294-301
<i>Islombek Abdikhakimov</i> QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES	302-309
<i>Hodjaeva Shirinxon Olimxon kizi</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ	310-315
<i>Jiyenbayev Bahadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA’MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA	316-322
<i>Aliшаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	323-329

Адембаев Аралбай Куралбаевич

АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ
ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОЙДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 330-339

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников

ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-
ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ
ПЕРСПЕКТИВЫ 340-346

Хаййева Ирода Адамбаевна

TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI
TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 347-351

Ayatov Raximberdi Ibragimovich

XORIJIY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI
O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 352-357

Saidova Dilobar Ikrambayevna

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOY XULQ-ATVORNI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI 358-361

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING
KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI 362-367

Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна

ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ 368-375

Janonova Sitora Berdinazarovna

ТА'ЛИМ ВА ТАРБИYA ТАРАҚҚИYOTИДА КОММУНИКАТИV КОМПЕТЕНСИYA
TUSHUNCHASINING O'RNI 376-381

Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи

ТАБИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА
ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО
СИФАТИДА 382-387

Bakhadirova Shoxina Nadir kizi

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA
TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH 388-392

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloevna

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI 393-397

Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION
METODLARI 398-403

Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li

TDIUSF "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida assistenti

Email: Saidmurodov199411@gmail.com

SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY SHARTI

Annotatsiya. Maqolada innovatsion rivojlanishni ta'minlashda soliq siyosatining o'рни muhim ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsiya va soliq tushunchalarning iqtisodiy mohiyati ochib berilgan. Soliqlarning innovatsion rivojlanishni ta'minlash borasidagi ahamiyati atroflicha o'rganilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, soliq, soliq imtiyozlari innovatsion faoliyat, innovatsion infratuzilma, milliy innovatsiya tizimi, soliq siyosati, soliq stavkasi.

Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li

TDIUSF "Finance, tax and banking" department assistant

AN EFFECTIVE TAX POLICY IS THE MAIN CONDITION FOR THE TRANSITION TO INNOVATIVE DEVELOPMENT

Abstract. The article highlights the important role of tax policy in ensuring innovative development. Also, the economic essence of the concepts of innovation and taxation is revealed. The importance of taxes in promoting innovative development has been extensively studied.

Key words: innovation, tax, tax benefits, innovative activity, innovative infrastructure, national innovation system, tax policy, tax rate.

Саидмуродов Ферузаодикжан угли

ТДИУФ «Финаны, налоги и банковское дело» аитент кафедрасы

ЭФФЕКТИВНАЯ НАЛОГОВАЯ ПОЛИТИКА – ГЛАВНОЕ УЛОВИЕ ПЕРЕХОДА К ИННОВАЦИОННОМУ РАЗВИТИЮ

Аннотация. В статье подчеркивается важная роль налоговой политики в обеспечении инновационного развития. Также раскрыта экономическая сущность понятий инноваций и налогообложения. Значение налогов в стимулировании инновационного развития широко изучается.

Ключевые слова: инновации, налог, налоговые льготы, инновационная деятельность, инновационная инфраструктура, национальная инновационная тема, налоговая политика, налоговая ставка.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N21>

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yuritish subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri mazkur subyektlarda innovatsion faollikni oshirish hisoblanadi. Rivojlangan, bozor iqtisodiyotini bosib o'tgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar bozor iqtisodiyotida faol o'zgarishlarni amalga oshirish va ishlab

chiqarish samaradorligini ko'tarish vazifalarini bajarib, kuchli ishlab chiqarish salohiyatini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligi yangi texnologiyalar, tovar va xizmatlarni joriy etish yo'li bilai shakllanib boradi. Shuning uchun ham korxonalar va tashkilotlarda innovatsiyalarni samarali joriy etishga yo'naltirilgan milliy ilmiy-texnik siyosat olib borish zarur bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, „..innovatsiya-bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak“ [1].

Yangi texnologiyalardan tijorat maqsadlarida foydalanish hisobiga ishki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga ko'pinsha tadqiqot loyihalarining yakuniy bosqichlarining yomon ishlab shiqilganligi, innovatsion istiqbollarning yo'qligi, taklif etilayotgan texnologik yeshimlarning past darajasi va mamlakatimizda korxonalarining innovatsiyalarni amaliy tatbiq etishga qiziqishining zaifligi to'sqinlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6-iyuldagi «2022 - 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy shora-tadbirlar to'g'risida»gi 307-sonli qarorining 6-bandida «Inno texnopark» MShJ va uning rezidentlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash shora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5099-son Farmonining 5-bandi bilan IT-park rezidentlariga berilgan imtiyozlar (ijtimoiy soliqdan tashqari) va preferensiyalar 2022-yil 1-avgustdan boshlab tatbiq etilishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birgalikda «Yashnobod» innovatsiya texnoparki rezidentlari uchun 2022-yil 1-avgustdan boshlab 2025-yil 1-avgustga qadar aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz etib belgilandi. Amalda innovatsiyalar iqtisodiyotga hali ham kam ta'sir ko'rsatmoqda hamda milliy miqyosda innovatsion faoliyatning ta'siri deyarli sezilmaydi. Milliy iqtisodiyotda faoliyat olib borayotgan korxonalarining ilm-fan va innovatsion faoliyatini rivojlantirishdagi asosiy muammolarni bartaraf etish davlatning tegishli iqtisodiy siyosati bilan katta resurs va vaqt xarajatlarini talab qiladi.

Yuqoridagi shora-tadbirlar innovatsion rivojlanishni ta'minlashda fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash borasida muhim ahamiyatga ega. Shunki milliy innovatsiya tizimi elementlaridan biri sanalgan texnoparklarga berilgan soliq imtiyozlari mamlakatda innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, innovatsion rivojlanishni ta'minlashda samarali soliqqa tortish siyosati muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Soliq siyosatining innovatsion rivojlantirishga ta'sirini o'rganish jarayonida, avvalambor, innovatsiya va soliq tushunchalariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy fanda “innovatsiya”ning mohiyatini ilk bor avstriyalik olim Y.Shumpeter quyidagicha ta'riflagan: “Innovatsiya – mavjud jarayonga yangisha qarash, yondashuv bo'lib, zamonaviy kashfiyot, ishlanma yoki insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangi ishlab chiqarishni muayyan jarayonga qo'llash”. Uning fikrisha, iqtisodiy faoliyatga aynan innovatsion yondashuv har bir davr iqtisodiy tizimining rivojlanish darajasini belgilab beradi. Uning nazariyasida tadbirkorlik ishlab chiqarishning to'rtinchi omili sifatida qaraladi. Shuningdek, tadbirkorlarning vazifasi yangi tovarlar yoki eski tovarlar yangi uslubda ishlab chiqarish uchun ixtirolardan foydalanib, yangi xom ashyo va materiallar manbalari yoki yangi bozorlar oshib, ishlab chiqarishni isloh qilish va takomillashtirishdan iborat. Olim innovatsiyalar, tadbirkorlar

tufayli iqtisodiyotda inqilobiy o'zgarishlar sodir bo'lishini bashorat qilgan [2].

Amerikalik iqtisodshi olim S.Kuznes 1980-yillarda “davrga oid innovatsiyalar” tushunshasini fanga kiritdi, uning ta'limotiga ko'ra, iqtisodiyot rivojlanishining muayyan davrida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va uning darajasini oshirish asosini davrga oid innovatsiyalarni joriy etish hisoblanadi, uning manbai esa ilm-fan[3] S.Kuznes muayyan davrga oid innovatsiyalarning joriy etilishi ijobiy samara berishi bilan birga uning salbiy ta'siri bo'lishi mumkinligini ham ta'kidlab o'tadi. Shu sababli, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda innovatsiyalarni rivojlantirish va uning ishlab chiqarishga joriy etilishida davlatning ishtiroki muhim hisoblanadi. Ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarning iqtisodiyotga muntazam joriy etilishi barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lish bilan birga, jamiyatda ishsizlik, tanglik, yangi avlod mutaxassislarini shakllantirish kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Olim innovatsiyalar nazariyasiga oid Y. Shumpeter g'oyalarini yangi yondashuvlar bilan boyitdi.

Bir guruh iqtisodshi olimlar [4] o'z tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlar innovatsiyalar hisobidan jadal iqtisodiy o'sishining ishki omillarini ko'rsatib berdilar. Ularning fikrisha, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish omillaridan biri ta'lim hisoblanadi. Maxsus ta'lim, tadqiqot va ishlanmalar uchun yirik kompaniyalarning xarajatlari xususiy tadbirkorlar sa'y-harakati bilan birgalikda innovatsion jarayonning asosi bo'lgan texnik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

A. Arora va A. Gambardelalar oliy ma'lumotli mutaxassislar mavjudligini innovatsion rivojlanishning asosiy omili sifatida alohida qayd etib, ushbu nazariya tarafdorlari hisoblanishadi. Ularning fikrisha, iqtisodiyotning yuqori texnologiyali sektori rivojlanayotgan barcha mamlakatlarda mintaqani rivojlantirish darajasiga nisbatan oliy ma'lumotli mutaxassislar ko'proq. Shuningdek, mazkur mamlakatlar keng va tabaqalashgan sanoat bazasiga ega emas, bu mutaxassislarni almashtirishda ishshi kushi uchun muqobil sarf-xarajatlar dolzarb emasligini ko'zda tutadi[5].

K.R. Makkonnell, S.L. Bryularning fikrisha, yirik kompaniyalar tashkil etish iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'li, omili sifatida e'tirof etilib, bu rivojlanish yangi texnologiyalarga tayanadi va quyidagi tamoyillar asosida amal qiladi: a) yirik kapitaldan foydalanish; b) yirik bozorlardan foydalanish; v) kompleks, markazlashgan va qat'iy integrasiyalashgan bozor tashkil etish; g) boy va ishonshli xom ashyo manbalarini talab qilish. Mualliflarning fikrisha, faqat yirik kompaniyalar yetarlisha resurs bazasiga ega bo'lgan holda texnik inqilobni ta'minlashi, kichik biznesning esa bunga qurbi yetmasligi mumkin. Ularning innovatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etgan texnika taraqqiyoti investitsiyalar bilan o'zaro bog'liqlikda amal qilib, jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Texnika taraqqiyoti jarayoni yangi jihozlar va mashinalarni yaratishga investitsiyalarni jalb qiladi, ishlab chiqarishga tatbiq etilgan innovatsion mahsulotlar esa qoloq iqtisodiyotlarda mehnat unumdorligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga sharoit yaratadi, deb ta'kidlagan edi [6].

Ta'kidlaganimizdek, “innovatsiya”ga berilgan iqtisodiy ta'riflar aynan bir-biriga o'xshamaydi. Masalan, rossiyalik iqtisodshi M. Gershman: “Innovatsiya - yangilik, kashfiyot va ixtirolar orqali yangi mahsulot, xizmat yaratish va muayyan jarayonni vujudga keltirish. Innovatsion faoliyat natijasida novasiya (lotinsha “novation”), ya'ni o'zgarish, yangilanish jarayoni sodir bo'ladi. Novasiya – oldin amaliyotda bo'lmagan yangi ixtiro, yangi hodisa, yangi holat bo'lib ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi usuli sifatida yuzaga shiqadi”[7].Shuni alohida ta'kidlash lozimki, innovatsiya nazariyasini tadqiq etish zaruriyati dastlab iqtisodiy va

texnologik sohalarda yuzaga kelayotgan inqirozlar sababini o'rganish, davlatlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarda muvaffaqiyatlarga erishish, davlat o'rtasida zamonaviy qurol-yaroqlarni ishlab chiqarishga bo'lgan omillar doirasida shakllandi. Shuningdek, iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etish va uning oqibatlari oldini olishda sanoatga asoslangan rivojlanish siklidan innovatsion rivojlanish fazasiga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Soliqlar to'g'risidagi qarashlar tarixan obyektiv va subyektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Soliqlarga doir turli ta'riflarni tahlil qilish ularning aniq iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotlar jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunshiligiga asos bo'lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud bo'lgan soliqlarning tutgan o'rnini aniqlash zarurdir. Shunki, davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri bo'lib hisoblangan.

Buyuk sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ta'kidlanishisha "Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanshidir" [9]. Demak, iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlar muhim o'rin egallaydi. Ayrim iqtisodshilar soliqlarni milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi sifatida, "Soliqlar – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir [10]" deb izohlaganlar. N.I.Turgenev o'zining "Soliq nazariyasi tajribasi" nomli kitobida (1818 yil) shuni ta'kidlaydiki [11], "Bilimli bo'lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf-odatlariga foydali ta'siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta'sir etgan", "...soliqlar bilimga ega bo'lish bilan birga paydo bo'lib, uning belgisi bo'lib qoldi.

Yana bir maqbul ta'rif S.G.Pepelyaev tomonidan berilgan: "Soliq – ommaviy hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir" [12]. Iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar shop etilgan masalan, "Siyosiy iqtisod" izohli lug'atida soliqlar "...korxonalar, tashkilot va aholini, mamlakat moliyaviy resurslarini tashkil etishdagi ishtirokini xarakterlovchi majburiy to'lovlar tizimi" [13].deb izohlanadi. Professor D.G.Shernikning fikrishga "Soliqlar – davlat tomonidan xo'jalik subyektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi" [14]. Sh.Gataulin "... soliqlar o'zi nima, ular nimaga kerak" degan savolga quyidagicha javob beradi: "Soliqlar – bu davlat sarf xarajatlarining asosiy manbai bo'lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqarorlashtiruvchi vositadir.

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi" [15]. deb o'z fikr mulohazalarini bildirgan. Shuni ta'kidlash kerakki, professor O.Olimjonovning fikriga ko'ra soliqlar quyidagicha ta'riflansa, soliqlarning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo'ladi. "Soliqlar – Davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir" [16].

Neokeynsshilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L. Xarrot, N. Kaldor, A. Xansen va P.Samuelsonlarning fikriga ko'ra, soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasiga ega. Ular

soliq stavkalarini o'zgartirish va turli imtiyozlar berish yo'li bilan bu funksiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar [17]. Ingliz iqtisodshisi S.Parkinson so'zi bilan aytganda: "Soliqlar ko'hnadir – xuddi dunyodek, uning yuzaga kelishida qashondir bir mahalliy qo'mandon o'z hududida joylashgan daryo yoki tog'dan savdogar hamda sayohatshi o'tsa ulardan haq olishi sabab bo'lgan" [18]. .

Soliqlarning belgilari borasida iqtisodshi olimlar tomonidan turli xil fikrlar mavjud. Masalan, professor Q.Yahyoev soliqlarni umumiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi.

1. Soliqlar va yig'imler majburiy bo'lib, bunda davlat soliq to'lovining bir qism daromadlarini majburiy badal sifatida byudjetga olib qo'yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi.

2. Soliqlar xazinaga davlat byudjetiga tushadi. Ammo boshqa turdagi to'lovlarning jamg'armalarga tushishi soliq munosabatlarini aks ettirmaydi.

3. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixan asrlab o'zgarmay harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Uning ilmiy asosi qanha shuqur bo'lsa, shunha qat'iy va uzoq yillar o'zgarimasdan harakat qiladi.

4. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovining o'ziga to'liq qaytmaydi, ya'ni u ekvivalentsiz pul to'lovidir. Soliqlar uzoq davr mobaynida jamiyat tomonidan yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish uchun undiriladigan asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

Shuningdek, soliqlar davlatning barcha davlat miqyosidagi shora-tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy moliyaviy manbalardan biri bo'lib mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida va belgilangan islohotlarni amalga oshirishda asosiy vositadir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar deganda soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Soliqlarga olimlar tomonidan berilgan bir qancha ta'riflarni o'rganib shiqdik. Shu o'rinda bu ta'riflar ma'lum ma'noda bir-birini takrorlab, to'ldirib va boyitib kelmoqda. Yuqoridagi ta'riflar soliqlarni to'liq va aniq yoritish, ularning barcha jihatlarini batafsil qamrab olmaydi. Shuning uchun soliq kategoriyasini har tomonlama kengroq va batafsilroq, shuningdek uning mohiyati va ahamiyatini, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rni, soliqlarning nazariy jihatlarini aniqroq va to'liqroq yoritish oladigan ta'rifni ishlab chiqish muammosi mavjud. Demak, soliqlar – bu byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir.

Dunyoda innovatsiyalar, tadqiqotlar va ishlanmalar aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy ambitsiyalarning muhim qismi hisoblanadi. Korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning muvaffaqiyatli ishlashi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy o'sishning zamonaviy modeliga o'tayotgan davlatlarda innovatsion faollik darajasi jahon qudrati uchun qabul qilib bo'lmaydigan darajada past bo'lib qolmoqda. Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishni rag'batlantirish va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq davlat tomonidan qo'yilgan maqsadlar to'liq amalga oshirilmayapti.

Yangi texnologiyalardan tijorat maqsadlarida foydalanish hisobiga ishki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga ko'pinsha tadqiqot loyihalarining yakuniy

bosqichlarining yomon ishlab shiqilganligi, innovatsion istiqbollarning yo'qligi, taklif etilayotgan texnologik yeshimlarning past darajasi va mamlakatimizda korxonalarining innovatsiyalarni amaliy tatbiq etishga qiziqishining zaifligi to'sqinlik qiladi.

Innovatsiyalar uchun soliq imtiyozlari masalasini ko'rib chiqishdan avval innovatsiya nima ekanligini aniqlab olishimiz lozim bo'ladi. B.Santoning fikriga ko'ra, innovatsiya ijtimoiy texnik va iqtisodiy jarayon bo'lib, g'oyalar va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali ularning xususiyatlari, mahsulot yoki texnologiyalarning xususiyatlari jihatidan eng yaxshilarini yaratishga olib keladi va agar bozorda yangilik paydo bo'lsa, qo'shimcha daromad keltirishi mumkin[19]. Darhaqiqat, shunga o'xshash ta'rifni B.Tviss taklif qiladi, u innovatsiyani ixtiro yoki g'oyaning ma'lum iqtisodiy mazmunga ega bo'lish jarayoni sifatida tavsiflaydi, muvaffaqiyatli innovatsiya esa yangi obyektning bozordagi taklifi bo'lib buning uchun iste'molshi qo'shimcha pul to'lashga tayyor [18].

Bu yondashuv iqtisodshi olimlari N.Lapin va A.Titov asarlarida ham o'z aksini topgan. O.Vodashkova va L.Vodashek innovatsiyalarning mohiyatini ko'rib chiqishda tizimli yondashuv qo'llash lozim degan fikrni ilgari suradi. Ularning fikrisha, innovatsiyalar orqali korxonalar faoliyatining istalgan sohasida miqdoriy va sifat o'zgarishlari amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tizim sifatida korxonalar faoliyatining maqsadli o'zgarishini tushunish mumkin bo'ladi[19]. Biroq, "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" mohiyatining barcha ko'rib shiqilgan ta'riflaridan kelib shiqib soliq imtiyozlari berishda soliq maqsadlarida foydalanishga imkon bermaydi. Aksariyat hollarda ular mahsulot, ish yoki xizmatni "innovatsiya" yoki "innovatsion faoliyat" sifatida tan olish faktini belgilash va hujjatlashtirish imkoniyatini bermaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida innovatsiya, soliqlar va soliqqa tortishga oid iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda uning ahamiyatiga oid ilmiy asarlari o'rganilgan. Mavzuni o'rganish davomida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari bilan shug'ullanadigan soliq to'lovshilarning bir qator toifalari uchun qisman (xorijiy davlatlarda soliq krediti kabi) emas, balki to'liq ozod qilish va bir soliq turi emas, balki bir qator soliqlar hamda yig'imlar uchun imtiyozli soliq rejimi o'rnatiladi. Bu investitsion soliq krediti talab qilinmasligining sabablaridan biridir. Bundan tashqari, yuqori subsidiyalangan hududlar o'rtasidagi gorizontal soliq raqobati ba'zan alohida yirik yoki eng yirik soliq to'lovshilar uchun o'z hududida "offshor"ni yaratish bilan bog'liq bo'ladi.

1-jadval

Tashkilotlarning o'z kushi bilan bajarilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish manbalari (2000-2021-yillar)¹

	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2021 y.
Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga sarflangan xarajatlar, jami (mlrd so'm)	11,2	36,4	116,1	628,5
Shu jumladan (%)				
Davlat budjeti mablag'lari	39,3	44,8	60,7	67,7

¹Stat.uz. ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Budjetdan tashqari fondlar mablag'leri	1,8	6,6	5,0	5,2
O'z mablag'leri	14,3	17,3	10,7	28,3
Buyurtmashilar mablag'leri	43,7	31,0	21,1	20,5
Xorijiy manbalar mablag'leri	0,4	0,5	2,5	2,8

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021-yilda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga sarflangan xarajatlar 2000-yilga nisbatan 38,2 martaga oshgan bo'lsada davlat budjeti tomonidan ushbu maqsadda ajratilgan mablag'lar 21 yil davomida atigi 18,4 foizga oshgan, 2010-yilga nisbatan esa 3,0 foizga kamaygan. Agar bu tahlil davridagi inflyatsiyani e'tiborga oladigan bo'lsak, bu ko'rsatkichlarning yanada keskin pasayishi holati ko'zga tashlanadi. Ishlanmalarga sarflangan buyurtmashilarning mablag'leri 2021-yilda 2000-yilga nisbatan 32,2 foizga kamaygan, xorijiy investorlar mablag'leri esa 2010-yilga nisbatan 1,7 foizga kamaygan. Umuman, 2021-yilda innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirishga davlat miqyosida 428,48 mlrd. so'm yoki taxminan 107,12 mln. AQSh dollari sarflangan. Bu O'zbekiston iqtisodiy salohiyati nuqta'i nazaridan past ko'rsatkich hisoblanadi.

Hududlar soliq salohiyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va soliq tushumlarining ko'payishi shaklidagi ta'sirshanligini oshirish bilan bir qatorda hududlar budjetiga daromadlarni kamayishiga olib kelishi mumkin. Ya'ni, talabning yetishmasligining muhim sababi hududlar tomonidan to'liq ozod qilish yoki soliq stavkasini pasaytirish foydasiga foydalanishni rad etishdir. Bularning barchasi mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish protsedurasini sezilarli darajada soddalashtirish yoki to'liq bekor qilish zarurligini ko'rsatadi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari xarajatlari uchun soliq imtiyozlarining xorijiy davlatlar amaliyoti vaqt sinovidan o'tgan va juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu tajribalarning qo'llanilishi esa mamlakatimiz miqyosida soliq siyosatining ushbu sohasini rivojlantirishda o'zining ijobiy samarasini beradi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli ijtimoiy sohalarni rivojlantirishni hisobga olgan holda soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlari bilan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari o'zaro bog'liqligini ta'minlash lozim. Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda bir qator ta'sir etuvshi mezonlarni hisobga olgan holda tashkil etish va bu yo'nalishlarni aniqlovshi muhim omilli ko'rsatkichlarni o'rganish hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini tartiblash muammosi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

2-jadval

O'zbekistonda 1992 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda soliq to'lovi stavkalarining o'zgarishi.¹

Soliq turlari	1992-2009-yillardagi eng yuqori soliq stavkalari	2010-yilda o'rnatilgan stavkalar	2021-yilda o'rnatilgan stavkalar	2023-yilda o'rnatilgan stavkalar	Pasayish
Qo'shimcha qiymat solig'i	30 foiz	20 foiz	15 foiz	12 foiz	2,5 barobar
Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i	45 foiz	9 foiz	15 foiz	15 foiz	3 barobar

¹Davlat statistika o'zgarishi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Soliq turlari	1992-2009-yillardagi eng yuqori soliq stavkalari	2010-yilda o'rnatilgan stavkalar	2021-yilda o'rnatilgan stavkalar	2023-yilda o'rnatilgan stavkalar	Pasayish
Yuridik shaxslar uchun mulk solig'i	5 foiz	3,5 foiz	2 foiz	2 foiz	2,5 barobar
Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	15,2 foiz	7,0 foiz	4 foiz	4 foiz	3,8 barobar
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	60 foizgacha	22 foizgacha	12 foiz	12 foiz	5,0 barobar
Yagona ijtimoiy to'lov	40 foiz	25 foiz	12 foiz	12 foiz	3,3 barobar

Jadval ko'rsatadiki, tahlil uchun olingan davrlarda iste'mol talabi va tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida qo'shimcha qiymat solig'i stavkasi 30 foizdan 12 foizga tushirildi va 2,5 barobarga pasaytirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yagona soliq to'lovi stavkasi yalpi tushumning 2005 yildagi 15,2 foizidan 4 foizga tushirildi, 3,8 barobarga pasaytirildi. Mustaqillik yillarida yuridik shaxslar daromad solig'i stavkasining pasaytirilishi korxonalar va tashkilotlarning oborot mablag'ini to'ldirishga, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ijobiy xizmat qiladi.

Muayyan soliq turi stavkasining pasayishi alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Masalan, yagona ijtimoiy to'lov, jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalarining kamayishi ishlaydigan ishchi-xodimlar va aholi daromadlarining muttasil oshib borishiga hamda ularni yanada kushli ijtimoiy muhofaza qilishga xizmat qiladi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday samarali soliq siyosati natijasida xo'jalik yurituvshi subyektlar ixtiyoriga majburiy tarzda to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larning qoldirilganligi ularga davlat tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rlik va ularni qo'llab-quvvatlanishning aniq ko'rinishidir.

Shu nuqtai nazardan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion rivojlanishini ta'minlashda innovatsion faoliyat subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlari hal qiluvchi omillardan biri ekanligini inobatga olib, ularga quyidagi yo'nalishlarda soliq imtiyozlarini berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan xo'jalik yurituvshi subyektlarining amalga oshirayotgan loyihasining qiymati, ahamiyati va istiqbolini hisobga olgan holda yer solig'i, mol-mulk solig'i va foydadan olinadigan soliqlardan qisman yoki to'liq ozod qilish dolzarb masala hisoblanadi.

2. Innovatsion faoliyat olib borayotgan tijorat korxonalarini va boshqa xo'jalik yurituvshi subyektlarning innovatsion loyihasini amalga oshirish uchun sarflagan investitsiyasi hajmidan kelib shiqib yagona soliq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, respublika yo'l fondiga, Respublika maktab ta'limi fondiga to'lanadigan soliqdan qisman yoki to'liq ozod etish masalasini hal etish.

3. O'zbekistonga yoki mamlakat hududida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarga to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalar miqdoriga, ishlab shiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan eksportning ulushiga qarab defferensiyalashgan soliqqa tortish tizimini qo'llash

maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Mamlakat hududlarining tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, geografik joylashuvi, tarixiy ixtisoslashuvidan kelib shiqqan holda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va ularga nisbatan kompleks imtiyozlar tizimi, xususan soliq imtiyozlari tizimi ishlab chiqish lozim bo'ladi. Mamlakatda samarali innovatsion siyosatni ishlab chiqish, iqtisodiyotning investitsiya kiritilishi lozim bo'lgan ustivor tarmoqlarini aniqlash, ularda olib borilayotgan ITTKIga tabaqalashgan soliq imtiyozlarini qo'llash zarur bo'ladi.

5. Mamlakatning boj-ta'rif siyosatini yanada takomillashtirish –innovatsion faollikni oshirishga ijobiy ta'sir qiladigan makroiqtisodiy dastaklardan muhimi hisoblanadi. Ma'lumki, davlatning tashqi savdo faoliyati, tadbirkorlarning eksport salohiyatimizni oshirishdagi ishtirokini kushaytirish bevosita ularga nisbatan yuritilayotgan boj-ta'rif stavkalari, tashqi savdoning leberallashtirilganligiga bog'liq. Fikrimizsha tadbirkorlarga bu sohada yordam berish mamlakatimizning qishloq-xo'jaligi mahsulotlari va ularni qayta ishlash yo'nalishidagi ulkan eksport imkoniyatlaridan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

6. Tadbirkorlarga, fermerlarga tashqi savdo yo'nalishida real erkinliklar berilishi, davlat buyurtmasidan ortiqsha qishloq-xo'jaligi mahsulotlarini sotishga tegishli sharoit yaratilishi o'ylaymizki milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga katta turtki bo'ladi.

7. Davlatning moliya, pul-kredit sohasidagi munosabatlarini yangilash, takomillashtirish zarurati kundan-kunga oshib bormoqda. Bizningsha bu sohada avvalo mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalariga e'tibor qaratish zarur. Demoqshimizki investitsiyalarning asosiy qismini iqtisodiyotning real sektori sohalariga yo'naltirish lozim. Bundan tashqari tadbirkorlik subyektlariga kredit berish tizimini soddalashtirish, kredit stavkalarini pasaytirish, bankka aholining ishonshini yanada kushaytirish shora-tadbirlarini ishlab chiqarish va amalga oshirishi lozim bo'adi.

Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlardagi muammo va vazifalarning hal etilishi –barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning moddiy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatda innovatsion rivojlanishni ta'minlash va bu jarayonda soliq siyosati, soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish masalalarini takomillashtirishga oid quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Rivojlangan davlatlardan innovatsion mahsulotning rasmiy-huquqiy shakli bo'lgan patent, litsenziyalarning kam xarid qilinishi va oqibatda zamonaviy texnika-texnologiyalarning milliy iqtisodiyotga sust joriy etilishi.

2. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning moddiy asosi hisoblangan texnopolislar, texnoparklar, biznes inkubatorlar va ilmiy-texnik markazlarning tashkil etilmaganligi innovatsion iqtisodiyotga o'tishdagi katta muammolardan biri hisoblanadi va ularni zudlik bilan tashkil etish shoralarini ko'rish zarur.

3. Erkin iqtisodiy zonalar(EIZ) – innovatsion iqtisodiyotning moddiy, texnik-texnologik asosini yaratuvshi manbalar hisoblanadi. Ularning tashkil etishning huquqiy-tashkiliy masalalarini hal etish va sonini ko'paytirishning shora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish lozim.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari asosan soliqlar hisobiga shakllanishi va keyingi yillarda soliqsiz daromadlarning ham o'sib borishi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida to'g'ri, ya'ni bevosita soliqlarga nisbatan egri

(bilvosita) soliqlarni salmog'i yuqori ekanligini ta'kidlash zarurdir. Egri soliqlar turlari ko'p bo'lmasa ham, ularni byudjetdagi salmog'i to'g'ri soliqlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, egri soliqlarni to'lash ist'molshi zimmasiga tushadi.

Bilvosita soliqlar korxonalar faoliyatiga neytral (xolis) pozitsiyadadir, degan nazariyadan kelib shiqib, respublikamizda ularni fiskal ahamiyatiga qarab, katta e'tibor berilmoqda. Shuning uchun mamlakatimizdagi bevosita aholi farovonligi va ishlab shiqaruvshi foydasiga ta'sir ko'rsatadigan bilvosita soliqlar ulushini kamaytirib, bevosita soliqlarni rag'batlantiruvshi funktsiyasidan foydalangan holda ushbu soliqlarning ulushini va manbaini ko'paytirish siyosati amalga oshirilmoqda.

Bevosita soliqlar stavkalarining pasaytirilishi, soliq solishning soddalashtirilishi "xufiyona iqtisodiyot" ning rivojlanmasligiga olib keladi. Ikkinshidan, so'nggi yillarda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, soliq stavkalarini pasaytirish va soliqlardan imtiyozlar berish hamda ishlab chiqarishning o'sishi natijasida soliq yuki darajasi ansha pasaydi. Bu esa YaIM hajmining o'sishiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga soliqlar solishni takomillashtirish orqali byudjetni daromadlar bilan ta'minlashni oqilonashtirish to'g'risida tavsiyalar ishlab shiqilayotgan paytda quyidagilar inobatga olinmog'i lozim: Birinchidan, eng avvalo tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va byudjetni daromadlar bilan ta'minlash masalalarini bir-biridan ajralib qolgan yoki bir-biriga bog'liq bo'lmagan masalalar sifatida qaramaslik kerak. Bordi-yu 72 masalaga shunday tarzda qaraladigan bo'lsa, ishlab shiqilgan taklif va tavsiyalar etarli darajada asoslanmagan taklif va tavsiyalar bo'lib qolaveradi. Bunaqangi xarakterdagi taklif va tavsiyalar bilan har ikki muammoni oqilona hal qilishning imkoni bo'lmaydi. Gap bu erda shunday bir variantni tanlash to'g'risida ketyaptiki, unga ko'ra o'sha variantni amalga oshirish ham tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish manfaatlariga va ham byudjet daromadlarini shakllantirish manfaatlariga ham mos kelishi kerak.

Ikkinshidan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirishda, shubhasiz, u yoki bu shakldagi imtiyozlarning berilishi muhim rol o'ynaydi. Lekin shu maqsadga erishish uchun mo'ljallangan imtiyozlarning berilishi o'zining mantiqiy shegarasiga egadir. Bu shegara, eng avvalo oldin bir ma'lum bir maqsadni ko'zlab berilgan oldingi imtiyozlardan qanday foydalanilganligi bilan belgilanmog'i lozim.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvshilarga ular faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun berilishi lozim bo'lgan qo'shimcha imtiyozlarning berilishi yoki berilmasligi to'g'risida moliyaviy qaror qabul qilinayotgan paytda oldin berilgan imtiyozlardan ularning qanday foydalanganliklari inobatga olinmog'i lozim. Agar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvshilar oldin berilgan imtiyozlardan maksimal ravishda foydalangan bo'lsalar va o'sha imtiyozni berishdan ko'zlangan maqsadga erishilgan bo'lsa, u holda o'sha subyektga nisbatan yana qo'shimcha imtiyoz berish lozim hisoblanadi.

Uchinchidan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvshilar uchun berilgan imtiyozlarning barchasidan to'liq foydalanilmasdan kelinyapti. Agar tadbirkorlar o'zlariga berilgan imtiyozlarning barchasidan to'liq foydalana olishni uddasidan shiqa olsalar, byudjet ihtiyoriga borib tushayotgan turli soliqlar, to'lovlar va yig'imlar miqdorini (summasini) 47-50% ga kamaytirishning imkoni bor ekanligini ko'rish mumkin. So'nggi yillarda xo'jalik yurituvshi subyektlarga bir qator soliq imtiyozlari va preferentsiyalar berilgan. Ana shu imtiyozlardan unumli 73 foydalanish yuzasidan moliyaviy nazorat yoki boshqasha aytadigan

bo'lsak, soliq nazoratini kushaytirish lozim.

1. Soliq imtiyozlari yildan-yilga oshmoqda, vaholanki, imtiyozlar amalda o'zlaridan ko'zlangan maqsadlari yuzaga shiqarmayotgani, buning ustiga davlat byudjeti ko'pgina mablag'dan mahrum bo'lmoqda va soliq og'irligi soliq imtiyozlaridan foydalanmayotgan ishlab shiqaruvshilar zimmasiga tushmoqda. Shundan kelib shiqib, imtiyozlarni qisqartirish kerak. Soliq imtiyozlarini qisqartirish zarurligini tasdiqlovshi unga asosiy dalilni ajratib ko'rsatish mumkin. - soliq imtiyozlari kamsituvshi tavsifga ega, u xo'jalik yurituvshi subyektlar uchun teng bo'lmagan sharoitni yuzaga keltiradi. Soliq imtiyozlari qancha ko'p bo'lsa, iqtisodda noaniqliklar va qoidabuzarliklar shunsha ko'p ushraydi. - Imtiyozlarni ko'pligi soliq to'lashdan bo'yin tovlash uchun imkoniyat yaratib berish bilan bir qatorda butun boshli tizim yaratadi.

2. Iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida soliq imtiyozlarini qo'llash quyidagi yo'nalishlar bilan sheklanishi lozim:

- investitsiyalarni rag'batlantirish mazkur yo'nalishda eng samarali hisoblanadi.
- Kichik biznesni rag'batlantirish.
- Ijtimoiy tavsifga ega aniq maqsadga yo'naltirilgan imtiyozlar.

Mamlakatimizda soliq tizimini isloh etishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor berish lozim:

barqaror davlat byudjetini shakllantirish maqsadida soliq ma'murshiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish;

mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash;

soliq tizimini yanada soddalashtirish va uning oshkoraligini ta'minlash bo'yisha tegishli shora tadbirlarni amalga oshirish.

soliq yukini yanada kamaytirishga qaratilgan islohotlarni izshillik bilan davom ettirish; iqtisodiyotning barqaror o'sishini rag'batlantirish, byudjet tizimining muvozanalashtirilishini ta'minlash;

byudjet yo'nalishidagi davlat dasturlaridan foydalanishni kengaytirish orqali byudjet mablag'larini sarflash samaradorligini oshirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi, mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi, investitsiya institutlariga imtiyozlarning (soliqlar doirasida) berilishi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining bevosita soliqlar manbaining o'sishiga sabab bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar. Innovatsion rivojlanishni ta'minlashda soliq siyosatini tadqiq qilish yuzasidan amalga oshirilgan o'rganishlar va tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- XXI asrda innovatsion rivojlanish mamlakat iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlashda asosiy omillardan biriga aylandi. Chunki, innovatsion iqtisodiyot zamonaviy texnika va texnologiyalar hamda insonning intellektual aqliy salohiyatining yuksak darajadagi natijalarining amaliy ko'rinishidir;

- "innovatsiya" so'zi XX asrning boshlarida iqtisodiy oborotga kirib kelgan bo'lib, mavjud jarayonga yangisha qarash, zamonaviy kashfiyot va ishlanma yoki insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ishlab chiqarish jarayoniga qo'llash ma'nosini anglatadi;

- tadqiqotlar va qiyosiy o'rganishlar asosida "innovatsiya"ga: "Innovatsiya – bu kapitalni yangi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, mehnatni yangicha tashkil etish, boshqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga sarflash natijasida yangidan olingan moddiy hamda

nomoddiy ne'matlardir" tarzidagi mualliflik ta'rifini shakllantirdik;

- milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini innovatsion rivojlanish orqali ta'minlash uchun mamlakatda birinchi navbatda siyosiy barqarorlik va tinchlikni hukm surishi zarur. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan siyosiy muhit yaratilgan;

- o'tish iqtisodiyoti davridagi mamlakatlarda innovatsion loyihalarini joriy etish uchun davlatni moliyaviy qo'llab-quvvatlashi juda muhim. Buni soliq imtiyozlari va preferensiyalarini joriy etish, moliyaviy subvensiyalar hamda imtiyozli kreditlar berish va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali amalga oshiriladi;

- mamlakatimizda innovatsion rivojlanishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash va xususiy shaxslar tomonidan mablag'lar ajratish bilan birga quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim. *Birinchidan*, amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarish fondlari va vositalarini joriy etish. *Ikkinshidan*, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini barcha yo'nalishlar bo'yicha qisqartirish. *Uchinchidan*, ekologik me'yorlarga va xalqaro darajadagi talablarga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish. *To'rtinshidan*, iste'mol tovarlar turlari va sifatini doimiy ravishda oshirib borish lozim bo'ladi;

- mamlakatimizda iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda ITTKilarini soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi yordamida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Xususan, korxonalar foyda solig'ini hisoblashda, soliq bazasini ilmiy ishlanmalarga sarflangan mablag'lar miqdoriga qisqartirilishi maqsadga muvofiq;

- ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvshi korxonalarni qo'llab quvvatlash maqsadida, korxonalar ustav kapitalini shakllantirishga yo'naltirilgan mablag'lar miqdoridan kelib shiqib, tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda, soliq imtiyozi muddati ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvshi yangi tashkil etilgan korxonaning ustav kapitali miqdoriga qarab belgilanadi;

- innovatsiya va innovatsion rivojlanishning asosiy manbasi fan va ta'lim hisoblanadi. Shularni hisobga olib, fan, sanoat va jamiyat o'rtasida o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan tizim yaratish lozim;

- O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlangan mamlakatlardagi kabi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga yoppasiga emas, balki uning o'ziga xos jihatlari e'tiborga olib alohida tarmoqlar kesimida joriy etish maqsadga muvofiq.

Yuqorida shakllantirilgan xulosalar va ishlab hiqilgan takliflar mamlakatimizda innovatsiya, soliq siyosatini rivojlantirishning nazariy va amaliy ahamiyatini oshirishga hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi degan umiddamiz.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi. 29.12.2018y. № 271–272
2. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1983.. 278-285.
3. Кузнец . овременный экономический рост: результаты исследований и размышлений. Нобелевская лекция, тр 105.// Нобелевские лауреаты по экономике: взгляд из России. Под ред. Ю.В. Яковца. пб.: Гуманитика, 2003.
4. Innovation Policy and the Economy, Volume 5, National Bureau of Economic Research, Adam B. Jaffe, Josh Lerner, and Scott Stern: The MIT Press, Cambridge, Massachusetts – 2005.

5. Arora A. and Gambardella A.: “Bridging the Gap”. In A. Aurora and A. Gambardella, eds., From Underdogs to Tigers: The Rise and Growth of the Software Industry in Some Emerging Economies. Oxford, UK: Oxford University Press. - 2005.
6. Макконнелл К.Р., Брю .Л. Экономик: принципы, проблемы и политика. В 2т.: Пер. англ. – М: 1997. Т.2. – . 89.
7. Гершман М.А. Инновационный менеджмент: учеб. пособие/ М.А.Гершман.-М.:Маркет Д, 2008. – . 200.
8. Туган-Барановский М.И. Избранное. Периодические промышленные кризисы. История английских кризисов. Общая теория кризисов.- М.: Наука - РО-ПЭН, 1997.
9. Темур тузуклари. Т.: Чўлпон, 1991 й. 98 б.
10. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. Т.: “Mehnat”, 1995 у. 377-б.
11. Тургенев Н.И. олик назарияи тажрибаи.- анктпетербург – 1818 й.
12. Пепеляев .Г. Оновый налогового права. М.: 1995, 496.
13. Политическая экономия. Толковый словарь. М.: Политиздат, 1990. 330.
14. Черник Д.Г. Налоги в рыночной экономике//Финансы. – 1992. – №3 161.
15. Гатаулин Ш. оликлар ва оликқа тортиш. Т.: 1996 й.
16. Олимжонов О. Бозор иқтиодиётига ўтиш даврида олик иёати. Ҳаёт ва иқтиод, 1992.
17. Жўраев А., Мейлиев О., афаров Г'. олик назарияи. Ўқув қўлланма. – Т.: Тошкент Молия институту, 2004. – 166 б.
18. Паркинсон . Закон и доходы. – М.: ПКК. Интерконтакт, 1992 – 100.
19. анто Б. Инновация как редство экономического развития. М.:Прогресс, 2011.-304
20. Тви Б. Управление научно-техническими нововведениями. М.:Экономика, 2009 – 89 .
21. Водачек Л., Водачкова О. стратегия управления инновациями на предприятии. М.: Экономика, 2011. - 167 .

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).